

KICHIK MAKTAB YOSHIDA IRODAVIY SIFATLARNI TARKIB TOPTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

M.Isaxanova

QDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21235564>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy faollikning shakllanishiga ta'sir etuvchi vaziyatli va ijtimoiy omillar psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida oilaviy muhit, o'qituvchi va tengdoshlar bilan munosabatlar, o'quv faoliyati, motivatsiya hamda emotsional vaziyatlarning irodaviy faollikka ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, psixologik rivojlanish, motivatsiya, ijtimoiy omillar, vaziyatli omillar, o'quv faoliyati, iroda, shaxs rivojlanishi, oilaviy muhit.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida barkamol, mustaqil fikrlovchi, ma'naviy yetuk hamda ijtimoiy faol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi inson shaxsiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki yosh avlodda mustaqil fikrlash, ongli qaror qabul qilish, o'z faoliyatini boshqarish, turli qiyinchiliklarni yenga olish hamda maqsad sari qat'iyat bilan intilish kabi irodaviy sifatlarni shakllantirishdan ham iboratdir. Shu bois o'quvchilarda psixologik barqarorlik, mas'uliyat hissi, o'zini nazorat qilish va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish pedagogik hamda psixologik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bolaning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda uning irodaviy rivojlanishini ta'minlash shaxs kamolotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Chunki irodaviy sifatlarni insonning kundalik faoliyatida, muammoli vaziyatlarni hal qilishida, maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirishida va ijtimoiy munosabatlarga kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik tadqiqotlarda iroda shaxsning ongli ravishda maqsadni belgilashi, qiyinchiliklarni yengib o'tishi, o'z hissiyotlari va xatti-harakatlarini nazorat qila olishi bilan bog'liq murakkab psixik jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu bois bolalik davridayoq irodaviy sifatlarni shakllantirish keyingi rivojlanish bosqichlari uchun mustahkam psixologik asos yaratadi.

Ayniqsa, kichik maktab yoshi davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida o'ta muhim va mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Mazkur yosh bosqichida bolaning hayot tarzi, ijtimoiy mavqei, faoliyat turi hamda atrofdagilar bilan munosabat tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Maktabga qadam qo'ygan bola yangi talablar, intizom qoidalari, ta'lim jarayoni va mas'uliyat hissi bilan yuzlashadi. Natijada unda mus taqillik, javobgarlik, qat'iyatlilik, sabr-toqat, o'zini nazorat qilish, maqsadga intilish kabi irodaviy sifatlarning shakllanish jarayoni faollashadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy faollikning rivojlanishi nafaqat biologik yetilish yoki individual psixologik xususiyatlarga, balki tashqi ijtimoiy va pedagogik ta'sirlarga ham bevosita bog'liqdir. Bola yashayotgan oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi, maktabdagi psixologik atmosfera, o'qituvchi bilan munosabatlar, tengdoshlar guruhi ta'siri, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, rag'batlantirish yoki tanqid kabi omillar uning irodaviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bolaning ijobiy emotsional holatda bo'lishi, o'ziga bo'lgan ishonch hissining shakllanishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi uning qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Vaziyatli omillar ham kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy faollik rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, baholash tizimi, o'quv topshiriqlarining murakkabligi, emotsional bosim, stress holatlari hamda motivatsiya darajasi bolaning ichki psixologik holatiga ta'sir qilib, uning faol yoki passiv bo'lishini belgilashi mumkin. Psixologik jihatdan qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda irodaviy sifatlar tezroq va samaraliroq shakllanishi kuzatiladi.

Psixolog olimlar, jumladan, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, S.L.Rubinshteynlarning ilmiy qarashlarida shaxs rivojlanishining ijtimoiy tabiati va faoliyat jarayonidagi shakllanish mexanizmlari alohida ta'kidlangan. Ularning fikricha, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, kattalar bilan hamkorlik qilish va faoliyat jarayonida shakllanadi. Demak, irodaviy faollik ham bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadigan psixologik sifat sifatida qaralishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kichik maktab yoshida irodaviy faollik shakllanishiga ta'sir etuvchi vaziyatli va ijtimoiy omillarni psixologik jihatdan o'rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni chuqur tadqiq etish bolalarda irodaviy sifatlarni samarali rivojlantirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda sog'lom psixologik muhit yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologiya fanida iroda insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, qiyinchiliklarni yenga olishi, ichki va tashqi to'siqlarga qaramay o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga intilishi bilan tavsiflanadigan murakkab psixik jarayon sifatida talqin etiladi. Iroda shaxsning faoliyatini tashkil etuvchi muhim psixologik mexanizmlardan biri bo'lib, u insonning ongli qaror qabul qilishi, emotsional holatini boshqarishi hamda o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olishi bilan chambarchas bog'liqdir. Irodaviy faollik esa insonning maqsadga erishishga bo'lgan ichki tayyorgarligi, qat'iyati va qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faol harakatlarini ifodalaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy harakatlar dastlab bevosita kattalar nazorati va ko'rsatmalariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Biroq vaqt o'tishi bilan bolaning ichki motivlari rivojlanib, uning xatti-harakatlari asta-sekin ongli va mustaqil tus ola boshlaydi. Dastlab bola topshiriqlarni kattalar talab qilgani uchun bajarsa, keyinchalik muvaffaqiyatga erishish istagi, tengdoshlar orasida o'z mavqeini mustahkamlash yoki shaxsiy qiziqish sababli faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshira boshlaydi. Bu esa irodaviy faollikning rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Psixolog olimlar, xususan, Lev Vygotskiy, A.Leontiev va Elkonin tadqiqotlarida bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning hal qiluvchi roli alohida ta'kidlangan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi kattalar bilan hamkorlik qilish, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va turli faoliyatlarga jalb etilish jarayonida yuz beradi. Bola kattalar tomonidan ko'rsatiladigan namunalar, rag'batlantirish va nazorat orqali asta-sekin o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi hamda ichki nazorat mexanizmlarini shakllantiradi.

Kichik maktab yoshida bolalarda bir qator muhim irodaviy sifatlar rivojlana boshlaydi. Jumladan, maqsadga intilish bolaning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga intilishi va natijaga erishishga bo'lgan qiziqishini ifodalaydi. Mustaqillik bolaning kattalarning doimiy yordamisiz qaror qabul qila olishida namoyon bo'ladi. Qat'iyatlilik esa uchraydigan qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish, boshlangan ishni oxiriga yetkazishga intilish bilan bog'liqdir.

Shuningdek, sabr-toqat bolaning uzoq muddat davomida diqqati va sa'y-harakatlarini saqlay olishini anglatadi. O'zini nazorat qilish sifati bolaning hissiyotlari va xulq-atvorini boshqara olishi, impulsiv harakatlardan tiyilishi bilan namoyon bo'ladi. Javobgarlik hissi esa topshirilgan

vazifalarni vijdonan bajarish, o'z harakatlari natijalariga nisbatan ongli munosabatda bo'lish orqali shakllanadi. Ushbu sifatlar keyinchalik shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va ta'lim faoliyatidagi samaradorligida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biroq kichik maktab yoshida irodaviy sifatlarning rivojlanishi barcha bolalarda bir xil darajada kechmaydi. Ushbu jarayon individual psixologik xususiyatlar, temperament, motivatsiya, emotsional holat, oilaviy tarbiya, pedagogik ta'sir hamda tengdoshlar bilan munosabatlar kabi omillarga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Ayrim bolalarda qat'iyatlilik va mas'uliyat hissi tez shakllansa, boshqalarida qo'rquv, tortinchoqlik yoki motivatsiyaning sustligi sababli irodaviy faollik nisbatan sekin rivojlanishi mumkin.

Demak, kichik maktab yoshi irodaviy faollikning shakllanishi va rivojlanishi uchun psixologik jihatdan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bolaga qulay ijtimoiy va pedagogik muhit yaratish, mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy motivatsiyani shakllantirish uning irodaviy sifatlarini samarali rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Vaziyatli omillar bolaning ma'lum bir faoliyat jarayonida duch keladigan tashqi sharoitlar, psixologik holatlar hamda pedagogik ta'sirlar majmuasi bo'lib, ular kichik maktab yoshidagi bolalarning irodaviy faolligi shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar bolaning muayyan vaziyatga munosabati, emotsional kechinmalari, ichki motivlari va xulq-atvor strategiyalarini shakllantirish orqali uning maqsad sari harakat qilish darajasini belgilaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bolaning irodaviy faolligi doimiy va o'zgarmas sifat emas, balki vaziyatning murakkabligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi hamda ichki ruhiy holatga bog'liq ravishda namoyon bo'luvchi dinamik psixologik jarayondir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar hali emotsional jihatdan yetarlicha barqaror bo'lmagani sababli turli vaziyatlarga sezgirlik bilan munosabat bildiradi. Shu sababli ta'lim muhiti, topshiriqning xarakteri, pedagogik yondashuv va baholash tizimi kabi omillar bolaning irodaviy faolligini rag'batlantirishi yoki aksincha, susaytirishi mumkin. Agar bola o'zini xavfsiz, qo'llab-quvvatlangan va qadrlangan muhitda his qilsa, u murakkab topshiriqlarni bajarishda ko'proq tashabbus ko'rsatadi, qiyinchiliklarni yengishga intiladi hamda faoliyat natijasiga nisbatan mas'uliyatli yondashadi.

Ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik holatlari ham bolaning irodaviy rivojlanishida muhim vaziyatli omil sifatida namoyon bo'ladi. O'quv faoliyatida ijobiy natijalarga erishish bolada o'ziga bo'lgan ishonch hissini mustahkamlaydi, muvaffaqiyatga intilish motivini shakllantiradi hamda keyingi faoliyatlarda qat'iyatlilikni kuchaytiradi. O'z mehnati natijasini ko'ra olgan bola murakkab vazifalardan qochmaydi, aksincha, ularni bajarishga ichki ehtiyoj sezadi. Shu bilan birga, pedagog tomonidan bildirilgan maqtov, e'tirof va ijobiy baholash bolaning o'z kuchiga ishonchini oshirib, uning irodaviy faolligini mustahkamlaydi.

Biroq takroriy muvaffaqiyatsizlik, haddan tashqari tanqid yoki salbiy taqqoslashlar bolada ikkilanish, qo'rquv va tashabbusning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda bola muvaffaqiyatsizlikni shaxsiy imkoniyatsizlik sifatida qabul qilib, faoliyatga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi. Natijada unda o'ziga nisbatan past baho, noaniqlik va qiyinchiliklardan qochishga moyillik shakllanish ehtimoli ortadi. Bu esa irodaviy sifatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Vaziyatli omillar tarkibida emotsional holat alohida o'rin tutadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida emotsiyalar muhim boshqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Quvonch, qiziqish, muvaffaqiyat hissi kabi ijobiy emotsiyalar bolaning faoliyatga jalb qilinishini kuchaytirib, maqsadga intilish darajasini oshiradi. Aksincha, xavotir, qo'rquv, ruhiy bosim yoki

muvaffaqiyatsizlikdan cho‘chish bolaning ichki faolligini kamaytiradi va unda passivlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi tomonidan haddan tashqari qat’iy talab qo‘yilishi yoki jamoa oldida tanbeh berilishi bolaning emotsional noqulaylikni boshdan kechirishiga olib kelishi mumkin.

Topshiriqlarning murakkablik darajasi ham irodaviy faollikka ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Juda murakkab yoki bolaning yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan topshiriqlar uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, haddan tashqari sodda vazifalar esa qiziqishning susayishiga olib keladi. Psixologik jihatdan maqbul yondashuv sifatida bolaning rivojlanish darajasiga mos, biroq ma’lum darajada qiyinchilik talab qiluvchi topshiriqlarni berish tavsiya etiladi. Bunday vaziyatlarda bola muammolarni yengishga harakat qiladi va asta-sekin irodaviy barqarorlikni rivojlantiradi.

Motivatsion omillar ham vaziyatli ta’sirlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bolaning faoliyati ichki qiziqish, muvaffaqiyatga erishish istagi yoki o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan qo‘llab-quvvatlansa, uning irodaviy faolligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Aksincha, faqat tashqi nazorat, jazodan qo‘rquv yoki majburiyat asosida tashkil etilgan faoliyat vaqtinchalik natija bersada, barqaror irodaviy sifatlarning shakllanishiga yetarlicha xizmat qilmaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda stressli vaziyatlarning ta’siri ham muhim hisoblanadi. O‘quv yuklamasining ortishi, ota-ona yoki pedagog tomonidan yuqori talab qo‘yilishi, sinfdoshlar bilan kelishmovchiliklar va moslashuv qiyinchiliklari bolaning psixologik zo‘riqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Stress holati kuchaygan sari bolaning diqqati susayadi, o‘zini boshqarish qobiliyati pasayadi va murakkab vazifalarni bajarishga bo‘lgan ichki tayyorgarligi kamayadi. Shu sababli bolalarda psixologik jihatdan qulay va emotsional xavfsiz ta’lim muhiti yaratish irodaviy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, vaziyatli omillar kichik maktab yoshidagi bolalarning irodaviy faolligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim psixologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida bolaning emotsional holatini, motivatsiyasini, individual imkoniyatlarini hamda faoliyatga nisbatan psixologik tayyorgarligini hisobga olish uning qat’iyatlilik, sabr-toqat, mustaqillik va mas’uliyat kabi irodaviy sifatlarni samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy faollikni rivojlantirish uchun quyidagi shartlarga amal qilish muhimdir:

1. O‘quv jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish.
2. Bolaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.
3. Rag‘batlantirish va motivatsiyani kuchaytirish.
4. Ota-ona va o‘qituvchi hamkorligini yo‘lga qo‘yish.
5. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
6. Muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga o‘rgatish.
7. Ijobiy emotsional tajribalarni shakllantirish.

Shuningdek, turli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va jamoaviy faoliyatlar ham bolalarda irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Kichik maktab yoshi bolaning irodaviy sifatlari shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning irodaviy faolligi vaziyatli va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanadi. Oila muhiti, o‘qituvchi bilan munosabatlar, tengdoshlar ta’siri, o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyat hamda emotsional holatlar bolaning irodaviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, bolani qo'llab-quvvatlash va mustaqil faoliyatga rag'batlantirish orqali unda qat'iyatlilik, mas'uliyat, o'zini boshqarish va maqsadga intilish kabi irodaviy sifatlarni samarali rivojlantirish mumkin.

Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida irodaviy faollikni shakllantirishga kompleks yondashuv asosida e'tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. — Toshkent: TDPU, 2004.
3. Karimova V.M. Psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
5. Nemov R.S. Psixologiya. — Moskva: Vldos, 2003.
6. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. — Moskva, 1995.